

**MUTAXASSISLAR TOMONIDAN HODISA SODIR BO`LGAN JOYDA
ANIQLANGAN TRASOLOGIK ASHYOVIY DALILLARNI DASTLABKI
TRASOLIGIK TADQIQOTINI O`TKAZISH JARAYONIDAGI
MUOMMOLARI**

Mansurov Arslon Askarovich

Toshkent shahar IIBB Ekspert-kriminalistika markazi

Kriminalistik ekspertizalar bo`limi eksperti kapitan

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqola orqali hozirgi kundagi zamonaviy trasologik ekspertizaning imkoniyatlari, tasniflanishi, zamonaviy trasologiyaning nazariy va huquqiy asoslariga tuxtalib o`tilgan. Bundan tashqari, xodisa joyining o`zida dastlabki trassalogik tadqiqot o`tkazishning dolzarb muommolari, yeshimlari haqida tuxtalib o`tilgan.

KALIT SO`ZLAR: trassalogiya, izlar, xodisa joyi, tadqiqotlar amalga oshirish, kaft izlari, daktiloskopiya, ekspertlar mahorati, daliliy ashyolar, xatshunoslik, qoldirilgan izlar, zarrachalar, ishlov asboblari.

**ПРОБЛЕМЫ ПРОВЕДЕНИЯ ПЕРВОНАЧАЛЬНЫХ
ТРАСЕЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА МЕСТЕ
ПРОИСШЕСТВИЯ**

АННОТАЦИЯ:

Возможности, классификация, а также теоретико-правовые основы современной трасологии обсуждаются в данной квалификационной выпускной статье. Кроме того, были обсуждены актуальные проблемы и пути решения предварительных трасологических исследований на месте происшествия.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: трасология, следы, место преступления, исследования, отпечатки ладоней, дактилоскопия, экспертные навыки, доказательства, хиромантия, следы, частицы, орудия.

PROBLEMS OF CONDUCTING INITIAL TRACELOGICAL RESEARCH AT THE PLACE OF THE INCIDENT

ANNOTATION:

The possibilities, classification, and theoretical and legal foundations of modern traceology have been discussed through this qualification graduation article. In addition, the actual problems and solutions of the preliminary traceological research at the scene of the incident were discussed.

KEY WORDS: traceology, fingerprints, crime scene, research, palm prints, dactyloscopy, expert skills, evidence, palmistry, fingerprints, particles, implements.

Shu kunga qadar O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari tizimini takomillashtirish, shuningdek, yagonalik, ochiqlik, shaffoflik tamoyillarini yana ishonchli ta'minlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, ichki ishlar organlarining mahallalarda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar havfsizligini taminlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi jinoyatchilikka qarshi kurashish, ularni oldini olish, hamda adolatli hukm qilish uchun tashkil etilgan quyi bo'g'inni rivojlantirish va mustaxkamlash bo'icha salmoqli ishlar qilindi. Yurtimizda qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlashning institutsional hamda huquqiy asoslari shakllantirildi. Bu o'znavbatida, jamiyatda adolat va inson manfaatlari ustuvorligini qaror toptirishda, korupsiya, byurokratiya singari illatlarga qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb yetmoqda. Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishdan, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlashdan, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasidan iborat.

«O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2016-yil 29 yanvardagi yig'ilishining qarorining 4.5. bandida belgilangan vazifalardan kelib chiqib "Ekspert kriminalistik faoliyati" yo'nalishi bo'yicha jinoyatlarni o'z vaqtida va issiq izidan ochish maqsadida jinoyat sodir etilganda ekspert-kriminalistlarning hodisa joyini ko'zdan kechirishda faol ishtirok etishlari, barcha dalily ashyolar qatorida mikroobyektlarga, barmoq izlariga ham e'tibor qaratishlari ko'rsatib o'tilgan.

Tadqiqotning dolzarbligi, O'zbekiston Respublikasi islohotlar yo'lidan dadil odimlar ekan o'z oldiga insonparvarlik prinsipiga asoslangan huquqiy davlat qurish xamda erkin fuqorolik jamiyati yaratish maqsadini qo'yib ildam qadam tashlab bormoqda. Trasologik ekspertizalar kriminalistik texnika fanining bir tarmog'i sifatida hozirgi zamon talablariga javob berishi kerak va shu bilan birga nazariya bilan amaliyotni o'zaro bog'lashida muhim o'rin tutadi. Trasologik ekspertizalar rivojlangan zamonaviy ilmiy-texnik yutuqlarga ega bo'lib, jinoyat ishlari bo'yicha adolatni yuzaga chiqarishda odil sudlovni demokratik asosida tarakkiy etib borishda qonuniylikni mustahkamlash va muhim shart sharoitlarni belgilaydi.

Trasologiya – kriminalistikaning alohida bo'limi bo'lib, uning vujudga kelishi ko'chmanchilar, ovchilar, izquvarlar tomonidan izlarni o'qish san'atiga borib taqaladi. Jinoyatlarni ochishda izlar va ulardan foydalanish to'g'risidagi manbalar qadimgi dunyo va keyingi davrlarning hujjatlarida ilk marotaba eslatib o'tiladi. Bular Manuning qadimgi hind qonunlari (er. avv. II asrdan va eramizning II asrigacha), Salik haqiqati (V–VI asrlar), Polsha haqiqati (XIII asr) va boshqalar. Rus haqiqatida ham o'g'rini izidan 6 qidirib topish, jinoyat sodir etilgan joydagi qon izlarining ahamiyati to'g'risida turkum maqolalar berib borilgan. Tergov va sud amaliyotida ilk bora qo'llangan izlar oyoq va qon izlari bo'lganligini e'tirof etish uchun barcha asoslar mavjud. Shu bilan birga, qadim zamonlardan boshlab, qo'l barmoqlarining izlari hamda tish izlariga dalil sifatida katta ahamiyat berilgan. Bularning hammasi keyinchalik jinoyatlarni ochishda izlardan foydalanish imkoniyatini yuzaga keltirdi. Izlarni topish, rasmiylashtirish va olib qo'yish usullari ishlab chiqildi. Trasologiyaning nazariyasiga asos solindi, ya'ni izlar, iz hosil bo'lishi, iz belgilari to'g'risidagi ta'limotlar bora-bora rivojlana boshlanganligi bois, trasologik ekspertizalarni tasniflash amalga oshirila boshladi. Trasologiyaning rivojlanishiga rossiyalik kriminalist olimlar katta hissa qo'shganlar. Biroq trasologiyaning vujudga kelish vaqtidan boshlab o'tgan jarayon mobaynida uning nazariy asoslari yetarlicha rivojlantirilmadi. Binobarin, trasologiyaning bu kabi amaliy yo'nalishi undagi kuchli taraflardan biri bo'lishiga qaramay, muayyan bosqichdagi nazariy asoslari unchalik o'rganilmadi. Izlarni olishning samarali vositalari ishlab chiqildi. Biroq ularning shakllanish qonuniyatlari hammaga ham ma'lum emas edi, ekspertlar identifikatsiyalovchi (aynanlashtiriluvchi) belgilarni o'rganish maqsadida ularni soddalashtirishni uddasidan chiqsalar-da, biroq hanuz iz



belgilarini aynanlashtirishning aniq tizimini topmagan edilar. Xususan, amaliyotda iz belgilariga baho berishning induktiv usullari tez rivojlana boshlashi va samarali ravishda o'zgarib borishiga qaramay, belgilarning buzilish qonuniyatlari, ularga baho berishning miqdoriy va obyektiv usullari to'g'risida hech nima ma'lum emas edi. Trasologiyada yuzaga kelgan bu kabi holat uning boshlang'ich bosqichi uchun xosdir. Kriminalistikaning mustaqil bo'limi sifatida trasologiya o'tgan asrning 30–40-yillarida ilk bor shakllana boshladi. Trasologiyaga taalluqli dastlabki manbalardan biri I. S. Semenovskiyning «Daktiloskopiya izlarni hisobga olish sifatida» (M., 1923-y.) deb nomlangan risolasi hisoblanadi. Kriminalistikaga doir ilk sovet darsliklarida (1935-y., 1938-y.) trasologiyaning ba'zi umumiy masalalari ko'tarilgan edi. I. N. Yakimov 1938-yilda nashr ettirgan darsligida ilk bor bu bo'linga ta'rif berib, uni «trasologiya» deb atashni tavsiya qildi. Shu vaqtdan boshlab «trasologiya» atamasi keyingi yillarda chop ettirilgan barcha darsliklarda qo'llanila boshladi.

Gnoseologik nuqtai nazardan jinoyat sodir etilishi oqibatida atrofmuhitdagi har qanday o'zgarishlar jinoyat izlari sifatida tan olinadi. B. I. Shevchenkoning ta'kidlashicha, «jinoyat izlari» tushunchasi jinoyatning turli bosqichlarida jinoyatchining xatti-harakatlari samarasi o'laroq yuzaga 13 kelgan har qanday moddiy o'zgarishlarni qamrab oladi. Mazkur holat kriminalistika fanining butun rivojlanish davrida «iz» tushunchasining turlicha talqin etilishiga sabab bo'lgan. Masalan, «keng ma'noda izlar» iborasi kiritilib, jinoyatning har qanday, shuningdek jinoiy oqibatlari nazarda tutilgan, aksincha, «tor ma'nodagi izlar» deganda, u yoki bu obyektning tashqi tuzilishini ifodalovchi izlar nazarda tutilgan. Shubhasiz, bu kabi talqin muhim ahamiyatga ega, zero agar izning akslanish jarayonini oxirgi natija deb qabul qiladigan bo'lsak, akslanish mexanizmining o'zini e'tiborga olmaslikning iloji yo'q. Bunda izlar u yoki bu obyektning tashqi tuzilishini aks ettirmasligi mumkin, biroq ularning yuzaga kelish mexanizmini aniqlashga imkon beradi. Mazkur holatni hisobga olar ekan, I. Kertes obyektning tashqi tuzilishini aks ettiruvchi izlar bilan bir qatorda, harakat (faoliyat)ni aks ettiruvchi izlarni ham tan olishni tavsiya etadi. Harakatni aks ettiruvchi izlar odamning ko'nikma, odat va ruhiy sifatlarini ifodalovchi izlarga hamda mexanik faoliyatni aks ettiruvchi izlarga bo'linishi mumkin. Inson ko'nikmalarini aks ettiruvchi birinchi guruhdagi izlarga funksional-dinamik kompleks (FDK)ni ifodalovchi bir xildagi xatti-harakatni qayta-



qayta takrorlash natijasida hosil bo'lgan izlar kiradi. Mazkur turdagi izlar trasologik ekspertiza obyektlarida uchrab turadigan qadam tashlash (yurish) izlari, (oyoq izlarining yo'lagi), tugunlar, qo'l choklari bo'lishi mumkin. Shunday qilib, izlarga berilgan trasologik ta'rifga muhim o'zgartirishlar kiritilgan bo'lib, hozirgi kunda trasologiya obyekti sifatida «iz» tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: izlar – moddiy obyektlar tashqi tuzilishining akslanishi va iz hosil bo'lish mexanizmini o'z ichiga oladi.

Trasologik ekspertizada ta'riflash (ta'riflab yozish) ? ekspertning o'z xulosalarida asoslanadigan obyektlar, belgilar va ekspertiza jarayonining o'zini yozma nutq, jadval, chizma, fotosurat va ularga ishora qo'yib chiqish orqali ifodalashidir. Bunda boshqa usullar yordamida olingan tekshiruv manbalari ham yozib qo'yiladi. Fotosurat yordamida qayd qilish ekspertiza natijalarini yaqqol ko'rsatib berish imkonini beradi. Tajriba (Eksperiment) – trasologik ekspertizada izlarning (identifikatsion masalalarni hal qilishda) qiyosiy namunalarini olish, shuningdek izlarning yuzaga kelish mexanizmlari to'g'risidagi farazning to'g'riligini isbotlash (diagnostik masalalarni hal qilish)da qo'llaniladi. Eksperiment izda akslangan obyektning belgilarini qayta aks ettirish, iz hosil bo'lishida mazkur belgilar qay tarzda o'zgarishini aniqlash, jinoyat sodir etilgan sharoitga yaqin sharoitda izlarni hosil qilish imkonini beradi. Bunda obyektning o'lchamlari va qay maqsadlarda qo'llanilishi, izlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan holatlar to'g'risida fikr yuritish imkoni mavjud. Taqqoslash tadqiqoti – trasologik obyektlarni identifikatsiya qilish jarayonidagi asosiy usullardan biri hisoblanadi. U bir-biriga mos keladigan belgilarni ajratish, ularning mazmunini o'rganish, identifikatsion ahamiyatini aniqlash, ularning o'zaro o'xshashligi va farqlarini tushuntirib berishga imkon yaratadi. Taqqoslash ikkita asosiy guruhga ajratish mumkin bo'lgan usullar yordamida amalga oshiriladi: 1. Bevosita taqqoslash usullari: ikkita solishtirilayotgan obyektlar (haqiqiy va eksperimental iz, iz va tekshirilayotgan obyekt) fotosuratlarini yoki optik tasvirlarini oddiy solishtirish, yonma-yon tushirish yoki ustmaust tushirish usullari orqali taqqoslash. 2. Baholash ko'rsatkichlarini taqqoslash usullari – belgilarni o'lchash yoki ko'zdan kechirishdan olingan ko'rsatkichlarni solishtirish. Qiyosiy taqqoslash usulini tanlash obyektning turi, izda aks etgan belgilar buzilishining xususiyatlari va kattaligi, tadqiqot aniqligi va tezligiga bog'liq bo'ladi. Bevosita solishtirish tadqiqotning yuqori darajada aniqligi



va natijalar ko'rgazmaliligini ta'minlaydi. Biroq, u belgilari yetarli darajada turg'un 19 aks etadigan obyektlarga, shuningdek yuzaga keladigan farqlar surunkali xususiyatga ega bo'lib, eksperiment orqali ularni qayta aks ettirish mumkin bo'lgan izlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Bevosita taqqoslash nolga teng yoki ayniyatli bo'lishi mumkin. Nolga teng taqqoslash tekshirilayotgan iz va eksperimental izning to'liq ravishda bir-biriga mos kelishiga erishiladi (chiziqlar to'liq ravishda bir-biriga qoplanadi va bir chiziqqa tutashib ketadi, relyef detallari bir-birining ustiga qo'yilganda, to'liq ravishda o'zaro qoplanadi). Mazkur holatda belgilar orasidagi farqlarni ko'z bilan ko'rib bo'lmaydi, ya'ni ular nolga teng bo'ladi. Ayniyatli (farqli) taqqoslashda eng muhim belgilarning bir-biriga mos kelishining o'zi yetarli hisoblanadi. Qolgan farqlar, basharti tegishli namunalarni yasash orqali isbotlanmasa, tushuntirib berilishi zarur. Busiz bir-biriga o'xshashlik to'g'risida xulosa qilib bo'lmaydi.

Xususiy identifikatsion belgilar va ularning izlardagi aksini taqqoslashda quyidagi izchillikka rioya qilinadi: avvalo, izda nisbatan aniq bo'lgan biror-bir belgining aksi aniqlanadi. Ushbu aks va poyafzal tagcharmidagi o'xshash belgi shakli, o'lchami va mayda tafsilotlariga ko'ra o'zaro taqqoslanadi. So'ngra izdagi birinchi aksga qarab, boshqa belgining aksi qidiriladi va shu asosda uning poyafzal tagcharmidagi tegishli belgiga mos kelish-kelmasligi aniqlanadi. Izlarda aniqlangan belgilarning qolganlari ham xuddi shunday taqqoslanadi. Umumiy va xususiy belgilarning mos kelishi izlari hodisa joyida qoldirilgan poyafzalning birxilligini aniqlash to'g'risidagi xulosaga kelishga yetarli asos hisoblanadi. Taqqoslanayotgan xususiy belgilarda farqning aniqlanishi hatto umumiy belgilar mos kelganda ham, qoida tariqasida o'xshashlikning mavjud emasligi to'g'risida xulosa qilish uchun asos hisoblanadi.

Hozirgi kunda an'anaviy qora-oq fotosuratga olish o'rniga raqamli hamda rangli fotosuratga olish, izlar tasvirini kompyuterda qayta ishlash va yuqori darajada tiniqlashtirish kabilar amalga oshirilmoqda. Trasologiya fani doirasida izlarni va boshqa obyektlar tasvirlarini modellashtirish usullarini qo'llash, izlarni o'lchash va taqqoslash borasida salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Oxirgi o'n yillar ichida amalga oshirilayotgan ekspertizalar turlari to'g'risidagi bilimlarning ko'payib borishi bilan birga trasologiya fanini ilmiy-nazariy muvofiqlashtirish jarayoni davom etmoqda. Trasologiyaga kiritilgan ilmiy-nazariy yangiliklar qatoriga kiyim-kechakdagi mexanik buzilish izlarini tekshirish, butunni qismlarga qarab aniqlash,



qon, ovoz fonogrammasi, tugunlar, qo'1 8 choklarini trasologik nuqtai nazardan tadqiq etish usullari va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin. Trasologiya kriminalistikaning mustaqil bo'limi bo'lib, boshqa turdagi kriminalistik ekspertizalar uchun o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Trasologiyaga tegishli ma'lumotlar, izlar va iz hosil bo'lishi to'g'risidagi trasologik bilimlar hujjatshunoslik ekspertizasida muhr, shtamp bosma nusxalar, yozuv mashinkasida yozilgan hujjatlar, poligrafik mahsulotlarni tadqiq qilish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Trasologiya qoidalari asosida sud-ballistik ekspertizasida o'q va gilza izlarini tekshirish orqali o'q-otar qurollarni aynanlashtirish amalga oshiriladi. Xulosa qilib aytganda, ekspert-kriminalistlarning ilmiy-texnik va intellektual salohiyatini oshirish, ularning kasbiy madaniyat, ijrochilik intizomini oshirish, vatanga, kasbga muhabbat tuyg'ularini shakllantirish, ularning maxsus bilimlarini va huquqiy savodhonligini oshirish, har bir hodisa sodir bo'lgan joylarda ekspert-kriminalistlarni mutaxassis sifatida qatnashishini to'liq ta'minlash, hodisa sodir bo'lgan joylarni ko'zdan kechirish tergov harakati jarayonida aniqlanishi mumkin bo'lgan dalillarni xolisona va to'liq aniqlash, qayd etish, tegishli tartibda olish, hamda maxsus bilimlar doirasida ashyoviy dalillarni mustahkamlash va aybsizlik prezumsiyasiga amal qilib, jazoning muqarrarlighi tamoyillaridan chetga chiqmagan holda odil sudlovni amalga oshirishda dalillarni holisona, ilmiy asoslantirilgan ekspert xulosasi bilan ta'minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.E.I. Churyakov, P.A.Kolmikov, Sh.X.Xasanov Noshtat patronlarning kriminalistik tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyatlari: O'quv – amaliy qo'llanma – T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymanova nomidagi RSEM, 2019. – 43b.
2. T.B. Mamatkulov, A.K. Zakurlayev, L.Yu. Yugay va boshq. O'zbekiston Respublikasining «Sud ekspertizasi to'g'risida»gi qonuniga sharh – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. – 176 b.
3. T.B.Mamatkulov, A.B.Babamurodov, F.E.To'rayev va boshq. Kriminalistik texnika: Ma'ruzalar kursi – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,
4. Nosirov U.M. Ekspert-kriminalistlarning avtomatlashtirilgan ishchi o'rni: O'quv-metodik qo'llanma. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015.



5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagi PF-5953-son «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini «Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida»gi farmon

6. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (2020 yil 26 martgacha bo‘lgan o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan). Rasmiy nashr / O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2020.

[http://utube.uz/\(Ta'lim videoportali\)](http://utube.uz/(Ta'lim videoportali))

7. [http://my.gov.uz/\(Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali\)](http://my.gov.uz/(Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali))

8. [http://ziyonet.uz/\(Ta'lim portali\)](http://ziyonet.uz/(Ta'lim portali))

9. [http://lex.uz\(O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi\)](http://lex.uz(O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi))

10. [http://wikipedia.org/\(Ochiq ensiklopediyasi\)](http://wikipedia.org/(Ochiq ensiklopediyasi))

